

Uzbekistan Airways ITB Berlin-2024 Xalqaro sayyohlik ko'rgazmasida

2024 6 Mart

2024-yilning 5-6 mart kunlari “Uzbekistan Airways” AJ o‘zining xizmatlarini rivojlantirish va ommalashtirish, shuningdek, aviaqatnovlarida xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida ITB Berlin-2024 Xalqaro sayyohlik ko'rgazmasida “O‘zbekiston” milliy stendi ostida ishtirop etmoqda.





Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Toshkentdan Frankfurtga dushanba, payshanba, shanba va yakshanba kunlari, shuningdek, Toshkentdan Myunxenga juma va yakshanba kunlari muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiradi.

